

№2

FEVRA
2025

MUNANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan
va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,
364 sahifa, fevral, 2025-yil.*

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

- Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- Toshkent davlat transport universiteti
- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
- Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
- Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Turizmning zamonaviy yo'nalishlarini rivojlantirish xususiyatlari	17
Xolmurzayev Sobir Nazarovich	
Tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining o'zbekistondagi narxlar darajasiga ta'siri.....	23
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
The main influencers of the quality assurance in tertiary education	29
Shakirova Dilfuza Tulkunovna	
Xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarni boshqarish tizimini optimallashtirish.....	35
Sultonov Sanjar Jaxongir o'g'li	
O'zbekistonda tungi iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi.....	41
Normamatov Ne'mat Daminovich	
Ta'lim menejerining professionalligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	45
Abdullayev O'tkir Sadullayevich	
Ekologik buxgalteriya hisobining uslubiy jihatlari.....	57
Hatidje Nasirova	
Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda marketing yondashuvi.....	65
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Infratuzilmani rivojlantirish – mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish drayveri sifatida	70
Sayfulina Alfira Feratovna	
Soliq nazorati jamoatchilik nazoratining shakli sifatida.....	79
Suvonov Hasan Sherboyevich	
Разработка интеллектуальной системы управления многостадийными технологическими процессами.....	84
Алишев Шеркузи Абдуманнонович	
Masofaviy xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish tizimini rivojlantirish	91
Tolliboyev Samad Tolliboy o'g'li	
Sug'urta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari	99
Umirov Abdusalom To'rayevich	
IoT tarmoqlari uchun optimallashtirish usullarini tahlil qilish	105
Abdug'aniyev Bekzod Burxon o'g'li	
Tarmoq xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar va usullar	110
Raxmonkulov Feruz Pardaboyevich	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish holatining matematik modeli.....	114
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Sug'urtada anderrayting xizmatini raqamlashtirish orqali sug'urta mukofoti va to'lovlarni amalga oshirishni takomillashtirish	120
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Korxonalar faoliyatini yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari.....	128
Muxiddin Eshmuradov	
Aholi turmush farovonligini oshirishning inson omiliga ta'siri.....	133
Sharofiddin Ismatov Asatulloevich	
Soliq salohiyatini baholashning zamonaviy metodlari va ularning rivojlantirish istiqbollari	137
Jo'rayev Xusan Atamuratovich	



Ish o'rinlarini qonuniylashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari.....	143
Dilshod To'rayev	
Davlat tashkilotlarida g'aznachilik va davlat xaridlari bilan bog'liq jarayon holatining tahlili.....	147
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
Iqtisodiy transformatsiyalashuv sharoitida aholi bandligini ta'minlashning ayrim masalalari.....	152
Salomat Norova	
Moliyaviy sektorni soliqqa tortish.....	159
Komolov Odiljon Sayfidinovich	
Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirishda bojxona menejmentini shakllantirish metodikasi.....	165
Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tuxbabayev Jamshid Sharafetdinovich	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini rivojlantirish istiqbollari.....	171
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Mamlakatda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy jihatlari.....	177
Azamatov Po'lat To'lqunovich	
Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiyotidagi tarkibiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	183
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari.....	189
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Asosiy vositalarni audit obyekti sifatida tasnifi va tavsifi.....	196
Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna	
Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirishga kreativ yondashuvning samarali tadbirlari.....	201
Rajabbaeva Dildora Zakirovna	
Роль цифровизации в обеспечении экономической безопасности предприятий.....	206
Махмудова Гулжахон Нематджоновна, Жанызакова Шахноза Мажит кизи	
Transport korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini takomillashtirish masalalari.....	215
Jabbarov Umarbek Rustambekovich, Rustamova Dilnura Umarovna	
To'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini baholash asosida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	220
Sadriddinova Nigora Khusniddinovna	
Uzum yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholash.....	227
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
Совершенствование управленческого учета в узбекистане: проблемы, интеграция и перспективы развития.....	236
Киличева Ф.Б.	
Tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'llari.....	241
Muxitdinov Ulugbek Diyarovich	
Tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlarni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	246
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Korxonalarni inqirozga yetaklovchi omillar va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar.....	255
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy dasturiy ta'minotning roli.....	260
Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich	



Qoyali zaminlarda gravitatsion to'g'onlar tasnifi	264
Maksimov Dilmurodbek Erkinjonovich	
Improvement of financing the innovation projects of business entities.....	270
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llari.....	278
Rustamov Eldor Baratovich	
Xarajatlar tushunchasining iqtisodiy mohiyati va hisobga olishning amaliy jihatlari.....	285
Aytimbetov Qoyshibek Orazbekovich	
Investitsion loyihalarni baholashda yuzaga keluvchi risklarni tahlil qilish va bartaraf etish yo'llari.....	291
Xurramova Madina Mansur qizi	
O'zbekistonda aholining unumli bandligi darajasini oshirishdagi huquqiy jihatlari.....	300
Qurbonov Samandar Pulatovich	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari foydasini shakllantirish va ko'paytirish masalalari.....	309
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
Xorij tajribasi asosida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish.....	316
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tarmoq va sohalarning o'rni	322
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Xudoynazarov Dilbek Baxodir o'g'li	
Korxonalarda qimmatli qog'ozlar audit masalalarini rivojlantirish	327
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Banklarda moliyaviy xavfsizlikning o'ziga xos jihatlari.....	335
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Turizmدا transport logistikasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	340
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Sayohatchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish: raqamli xavfsizlik va qonunchilik o'zaro ta'siri.....	345
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Yangi konstruktiviy aylanuvchi stolga ega tikuv mashinasida tajribalar tahlili	351
Amonov Abdurahmon Rafiq o'g'li, Muxamedjanov Mironshoh Mansurjon o'g'li	
Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi AQSH tajribasi	356
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	

IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH METODOLOGIYASI AQSH TAJRIBASI

Rajapov Shuxrat Zaripbayevich

I.f.n. (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil izlanuvchi
Science ID:FXR-0525-0021, ORCID 0000-0002-4464-1542

Annotatsiya: Mazkur maqolada ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi AQSH tajribasi tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi, transchegaraviy, soliq yuki, dividend, soliq krediti, iqtisodiy mazmun ustuvorligi, xalqaro soliq normalari, xalqaro soliqqa tortish.

Abstract: This article analyzes the methodology for eliminating double taxation based on the experience of the United States.

Keywords: double taxation elimination methodology, cross-border, tax burden, dividend, tax credit, economic substance priority, international tax rules, international taxation.

Аннотация: В данной статье проанализирована методология ограничения двойного налогообложения на основе опыта США.

Ключевые слова: методология устранения двойного налогообложения, трансграничный, налоговое бремя, дивиденды, налоговый кредит, приоритет экономического содержания, международные налоговые правила, международное налогообложение.

KIRISH

Globalizatsiya jarayonida davlatlar oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bu esa transchegaraviy faoliyatni amalga oshirayotgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun ikki yoki undan ortiq davlatda soliq toʻlash majburiyatini keltirib chiqarmoqda. Natijada ikkiyoqlama soliqqa tortish holati vujudga keladi. Bu esa investitsiya muhitiga salbiy taʼsir koʻrsatib, soliq toʻlovchilar uchun ortiqcha yuk yaratadi. Shunday ekan, ushbu muammoni bartaraf etish milliy va xalqaro soliq siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. AQSH bu borada boy tajribaga ega boʻlib, ikkiyoqlama soliqqa tortishni kamaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etgan. AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning asosiy usuli - soliq krediti metodidir. Bu metodga koʻra, AQSH fuqarosi yoki rezidenti xorijda topgan daromadidan xorijda toʻlangan soliq miqdori hisobga olinadi va AQSHdagi soliq majburiyatidan tushiriladi. Bu usul orqali ikki marta soliq toʻlashdan saqlaniladi. Bundan tashqari, AQSH koʻplab davlatlar bilan ikki tomonlama soliq shartnomalarini tuzgan. Ushbu shartnomalarda daromad manbalari, soliq toʻlash joyi, dividendlar, foizlar, royalti va boshqa turdagi daromadlarga nisbatan soliq yuki aniq belgilab qoʻyilgan. Bu esa kompaniyalar va investorlar uchun aniqlik va barqarorlik yaratadi. AQSH tajribasidan yana bir muhim jihat – mamlakatning ichki soliq qonunchiligida xalqaro soliq normalarini moslashtirishdir. Masalan, 2017-yilda qabul qilingan Tax Cuts and Jobs Act (TCJA) orqali xalqaro



daromadlarga nisbatan yangi soliq rejimlari joriy etildi. Shu orqali daromadni chet elda saqlashni kamaytirish, kompaniyalarni vatanga qaytarish va ichki bozorda raqobatbardoshlikni oshirish maqsad qilingan.

AQSH tajribasi xalqaro soliq munosabatlarini tartibga solishda nafaqat ikki tomonlama shartnomalarga, balki ichki qonunchilikdagi samarali instrumentlarga ham tayanadi. Xususan, "Foreign Tax Credit" (FTC) mexanizmi - ya'ni xorijda to'langan soliqlarni AQSHdagi soliq majburiyatlaridan chegirish imkoni - AQSH soliq tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Bu mexanizm soliq to'lovchilarni soliqni ikki karra to'lashdan muhofaza qilish bilan bir qatorda, ularni hujjatlash va hisob-kitob yuritishda ham mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Shu bilan birga, AQSHda «Controlled Foreign Corporation» (CFC) konsepsiyasi ham joriy etilgan. Bu orqali AQSHdagi rezidentlar tomonidan nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining daromadlari aniqlanib, ushbu daromadlar uchun AQSHda soliq to'lash majburiyati yuzaga keladi. Bu xalqaro soliqdan qochishni oldini olish maqsadida joriy etilgan mexanizm bo'lib, uning tahlili O'zbekiston kabi taraqqiyot yo'lidagi davlatlar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. AQSHning xalqaro soliq siyosatida axborot almashinuvi, ya'ni "FATCA" (Foreign Account Tax Compliance Act) orqali xorijiy moliya institutlaridan AQSH fuqarolariga tegishli hisobvaraqlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash mexanizmi juda katta ahamiyatga ega. Bu orqali AQSH soliq organlari o'z fuqarolarining xorijdagi daromadlari va aktivlari ustidan nazoratni ta'minlaydi. Bunday tajriba O'zbekistonda ham daromadlarning to'liq va haqiqiy manbasini aniqlash, soliq to'lash madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ham keyingi yillarda ikki tomonlama soliq shartnomalarini ko'paytirish, xalqaro standartlarga mos keladigan soliq islohotlarini amalga oshirish yo'lida harakat qilmoqda. Jumladan, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan ishlab chiqilgan BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) tashabbuslariga qo'shilish va bu orqali xalqaro soliq shaffofligini ta'minlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

AQSH tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirishda quyidagi yo'nalishlar ustuvor bo'lishi mumkin:

- soliq kreditini joriy etish;
- soliq rezidentligi va daromad manbaini aniq belgilash;
- iqtisodiy mazmun ustuvorligi (substance-over-form) prinsipini qonunchilikka joriy etish;
- axborot almashinuvini xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yish;
- ikki tomonlama soliq shartnomalarini ko'paytirish.

Shu tariqa, AQSHning ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishdagi ilg'or tajribasi O'zbekiston uchun namuna sifatida xizmat qilishi mumkin. Soliq tizimini takomillashtirish, soliq to'lovchilar huquqlarini himoya qilish va investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida ushbu tajribadan foydalanish juda muhimdir. Bu nafaqat mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki xalqaro miqyosdagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlaydi. AQSHning ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishdagi tajribasi tizimli, huquqiy asoslangan va biznes muhiti uchun qulay mexanizmlarga ega. Bu tajriba boshqa davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham o'rganish va amaliyotga joriy etish uchun muhim namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro shartnomalar tuzish va soliq organlari o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish orqali ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosini samarali hal qilish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro soliqqa tortish sohasidagi ilk nazariy tadqiqotlar Brian J. Arnold, Michael J. McIntyre kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Miles Dead, Richard Williamsning "Introduction to the Law of Double Taxation Conventions" nomli asarida ikki tomonlama soliq shartnomalarining huquqiy va amaliy jihatlari chuqur yoritilgan. U muallif shartnomalardagi "rezidentlik" va "manba davlat" tushunchalarining kelib chiqishi, ularning soliq yukini taqsimlashdagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beradi. Reuven S. Avi-Yonah va L.Richardning "US International Taxation" asari esa AQSHdagi xalqaro soliq qoidalarini tushuntirib beradi. Unda soliq krediti, global daromad tushunchasi, CFC konsepsiyasi va «Subpart F Income» kabi tushunchalar amaliy misollar asosida izohlangan.

AQSH Moliya vazirligi va Ichki daromadlar xizmati (IRS) tomonidan chop etiladigan hisobotlar va normativ hujjatlar mazkur mavzuni o'rganishda eng ishonchli manbalardan hisoblanadi. Jumladan:

- Internal Revenue Code (IRC), Subpart A & F – AQSHda rezident fuqarolar va kompaniyalarning xalqaro soliq majburiyatlarini belgilaydi;
- Publication (Foreign Tax Credit) – xorijda to'langan soliqlar uchun kredit berish tartibi bo'yicha tavsiyalar;
- Tax Cuts and Jobs Act (TCJA, 2017) – xalqaro soliq tizimiga olib kirilgan GILTI (Global Intangible Low-Taxed Income) va FDII (Foreign-Derived Intangible Income) mexanizmlarini tushuntiradi. Bundan tashqari, AQSH Kongressining Soliq bo'yicha qo'mitasi (Joint Committee on Taxation) tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlar AQSH xalqaro soliq tizimidagi o'zgarishlarning iqtisodiy natijalarini baholashda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan tayyorlangan BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) dasturi, jumladan, uning 6-sonli hisoboti – "Prevention of Treaty Abuse" AQSH va boshqa mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama shartnomalardan suiiste'mol qilish holatlarini bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

OECD tomonidan chop etilgan "Model Tax Convention on Income and on Capital" soliq shartnomalarini tuzishda qo'llanadigan asosiy huquqiy ramkani belgilab beradi. Ushbu modelda ikkiyoqlama soliqni bartaraf etishning ikki usuli – soliqni istisno qilish va soliq krediti qo'llash tavsiya etiladi. AQSH, asosan, kredit usulidan foydalanadi, bu esa mamlakatning global soliq siyosatini belgilaydi. 2010-yilda qabul qilingan FATCA (Foreign Account Tax Compliance Act) qonuni AQSH fuqarolariga tegishli bo'lgan xorijiy bank hisob raqamlaridan daromadni oshkor qilishni majburiy qilgan. Bu qonunga muvofiq, chet el moliya institutlari AQSH rezidentlari haqidagi ma'lumotlarni IRSga taqdim etishi shart. Bu tajriba soliq shaffofligini oshirishga va ikkiyoqlama soliqdan qochishni oldini olishga xizmat qiladi. FATCA va uning Yevropa Ittifoqidagi analoglari (CRS – Common Reporting Standard) bilan solishtirma tahlil qilinayotgan mualliflardan biri D. Spenserning ishlarida axborot almashinuvining xalqaro investitsiya muhitiga ta'siri keng yoritilgan.


O'zbekistonda bu mavzudagi tadqiqotlar soni cheklangan bo'lsa-da, ayrim iqtisodchilar va soliq huquqi bo'yicha olimlar – J. Qudratov, A. Mamarasulov, Sh. Norqobilov kabi mutaxassislar ikki tomonlama soliq shartnomalari va rezidentlik belgilash tartibiga oid ilmiy ishlar yozgan. Ular xalqaro tajribani, jumladan, AQSH modelini O'zbekiston soliq tizimida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi va Iqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlar ham ushbu mavzuni milliy nuqtai nazardan o'rganishga yordam beradi. AQSHning ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishga oid tajribasini o'rganishda yuqorida qayd etilgan adabiyotlar mustahkam nazariy va amaliy asos hisoblanadi. Bu manbalar xalqaro soliq munosabatlari, rezidentlik, daromad manbai, shartnomalarni tuzish amaliyoti, axborot almashinuvi va soliq shaffofligi kabi qator muhim masalalarni qamrab oladi. O'zbekiston uchun bu tajriba nafaqat soliq siyosatini modernizatsiya qilish, balki xalqaro investitsiya muhitini yaxshilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozish jarayonida ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NARIJALAR

Bugungi ma'ruzamizda xalqaro soliqqa tortish tizimida muhim o'rin tutadigan muammo – ikkiyoqlama soliq solish va uning AQSH tajribasida qanday bartaraf etilayotgani haqida so'z yuritamiz. Ushbu mavzu zamonaviy global iqtisodiyotda investorlar, tadbirkorlar va davlatlar manfaatlarini to'qnash kelayotgan bir paytda dolzarb ahamiyat kasb etadi.



1.Rasm. AQSH tajribasidan kelib chiqib bitimlar tahlil va natijalari¹

Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, AQSHda 65 ta ikkiyoqlama soliq shartnomasi mavjud bo'lib, bu miqdor Buyuk Britaniya (130) yoki Germaniya (96) bilan solishtirganda kamroq. Ammo AQSH xorijiy soliq to'lovchilarni ichki qonunchilik orqali qo'llab-quvvatlaydi va FTC tizimi orqali ikkiyoqlama soliq solinmasligini kafolatlaydi. Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, AQSHda ikkiyoqlama soliq shartnomalari nisbatan kam bo'lsa-da, u FTC kabi ichki yondashuvlar bilan muammoni samarali hal qiladi.

AQSH ikkiyoqlama soliq solishni bartaraf etish borasida rivojlangan va tizimli yondashuvni shakllantirgan davlatlardan biridir. U quyidagi asosiy mexanizmlarni qo'llaydi:

- xorijiy soliq kredit tizimi (Foreign Tax Credit, FTC);
- CFC (Controlled Foreign Corporation) qoidalari;
- FATCA (Foreign Account Tax Compliance Act) orqali moliyaviy shaffoflikni ta'minlash;
- yuzlab ikki tomonlama soliq shartnomalari orqali rezidentlik va daromad manbasini aniq belgilash.

1-jadval. Rivojlangan davlatlarda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish yuzasidan bitimlar tahlili².

Davlat	Ikkiyoqlama Soliq shartnomalari (dona)	Xorijiy Soliq Kredit Tizimi mavjudligi
AQSH	65	Ha
Buyuk Britaniya	130	Ha
Germaniya	96	Ha
Singapur	88	Ha
O'zbekiston	55	Yo'q

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda xorijiy soliq kredit tizimi mavjud emas. Bu holat, ayniqsa xorijdan daromad olayotgan rezidentlar uchun ikkiyoqlama soliq solish xavfini oshiradi.

AQSHda soliq to'lovchilarning manfaatlarini himoya qilish uchun kuchli mexanizmlar mavjud. Misol uchun, FTC orqali AQSH fuqarosi Germaniyada 25% soliq to'lagan bo'lsa, AQSHda 21% korporativ soliq stavkasi mavjud bo'lsa, ortiqcha to'lov qaytariladi yoki hisobga olinadi. FATCA orqali xorijdagi moliyaviy hisoblar haqida IRS doimiy ravishda ma'lumot oladi. Shartnomalarda "tie-breaker" qoidalari mavjud bo'lib, ikki davlatda rezidentlik aniqlanmay qolsa, bu qoida orqali bartaraf etiladi.

FTC tizimini joriy etish orqali xorijdan daromad oluvchi yuridik va jismoniy shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ikkiyoqlama soliq shartnomalari sonini oshirish, ayniqsa asosiy savdo sheriklari bilan

1 Muallif tomonidan tayyorlandi.

2 Muallif tomonidan tayyorlandi.

(Xitoy, Turkiya, Qozog'iston, BAA), BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) standartlariga mos keluvchi qonunchilikni ishlab chiqish.

AQSH ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosini hal qilishda quyidagi yondashuvlardan foydalanadi:

- foreign Tax Credit (FTC) – xorijda to'langan soliqni ichki soliqdan chegirib tashlash imkonini beradi;
- CFC qoidalari – xorijdagi nazorat qilinuvchi kompaniyalar orqali soliqdan qochishning oldini oladi;
- FATCA – xorijdagi bank hisobraqamlaridan foydalanish orqali daromadni yashirishga qarshi kurashadi;
- Ikki tomonlama soliq shartnomalari – boshqa davlatlar bilan soliq majburiyatlarini aniq belgilaydi.

AQSH rezident shaxsining Germaniyada daromad topgani va u yerda 25% soliq to'laganini tasavvur qilaylik. AQSHda o'sha daromad uchun 21% soliq hisoblanadi. FTC tizimi orqali AQSH faqatgina farqni hisobga oladi yoki hech qanday soliq olmaydi. Bu soliq yukining ikki barobar bo'lishini bartaraf etadi. O'zbekiston hozirda 55 ta ikkiyoqlama soliq shartnomasiga ega, lekin FTC tizimi joriy etilmagan. Bu xorijda daromad olayotgan shaxslar uchun ikki marta soliq to'lash xavfini oshiradi. Ushbu tajribani inobatga olgan holda quyidagi tavsiyalar dolzarb:

- FTC tizimini qonunchilikka joriy etish;
- ikkiyoqlama soliq shartnomalarini ko'paytirish, ayniqsa asosiy savdo hamkorlari bilan;
- FATCAGA o'xshash shaffoflikni ta'minlaydigan tizimlar ishlab chiqish;
- OECD BEPS tavsiyalariga asoslangan qonun hujjatlarini ishlab chiqish.

AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosi faqat xalqaro shartnomalar bilangina emas, balki ichki qonunchilikdagi aniq mexanizmlar orqali ham samarali hal etilishi mumkin. O'zbekiston uchun bu boradagi yondashuvlar nafaqat soliq yuki muammosini hal qiladi, balki xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishga ham xizmat qiladi.

AQSH soliq tizimida "Foreign Tax Credit" (FTC) mexanizmi orqali, agar soliq to'lovchi xorijiy davlatda o'z daromadi uchun soliq to'lagan bo'lsa, bu to'lovlar AQSHda to'lanishi kerak bo'lgan soliqdan chegirib tashlanadi. Natijada, soliq to'lovchi bir xil daromad uchun ikki marta soliq to'lashdan ozod bo'ladi. Bu tizim AQSH rezidentlari uchun xalqaro darajada soliq yukining ortiqcha bo'lishining oldini olishda muhim himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu yondashuv ikkiyoqlama soliqqa qarshi kurashishda AQSHning eng samarali va barqaror metodologiyalaridan biri hisoblanadi. FTC orqali AQSHda daromadga yana alohida soliq to'lanmaydi. Bu ikkiyoqlama soliqqa qarshi samarali himoya vositasi sifatida xizmat qiladi.

2-jadval. Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi AQSH tajribasida FTC orqali soliq yuki kamayishi tahlili³.

Ko'rsatkich	Germaniya (xorijiy davlat)	AQSH (ichki davlat)
Soliq stavkasi	25%	21%
Daromad miqdori	\$100,000	\$100,000
Germaniyada to'langan soliq	\$25,000	–
AQSH soliq majburiyati (FTCsiz)	–	\$21,000
AQSH soliq majburiyati (FTC bilan)	\$0	\$0 (to'liq chegirma)
Umumiy soliq yuki	\$25,000	\$25,000

Ushbu jadval AQSH fuqarosi yoki rezidenti tomonidan xorijda, xususan Germaniyada olingan daromadning soliq jihatdan qanday tartibda hisob-kitob qilinishini ochib beradi. Misolda 100,000 AQSH dollari miqdoridagi daromadga nisbatan Germaniyada 25% soliq stavkasi asosida \$25,000 miqdorida soliq to'langan. AQSHda ham bu daromaddan 21% stavka bo'yicha \$21,000 soliq hisoblanishi lozim bo'lardi. Ammo FTC (Foreign Tax Credit) tizimi orqali shaxs allaqachon Germaniyada \$25,000

3 Muallif tomonidan tayyorlandi.



to'lagani uchun, bu summani AQSHda to'lanadigan soliقدan chegirib tashlaydi. Natijada, soliq to'lovchi AQSHda bu daromad uchun yana alohida soliq to'lamaydi. Umumiy soliq yuki Germaniyada to'langan \$25,000 bilan cheklangan bo'ladi. AQSH bu yerda ortiqcha soliq undirmayapti, lekin xorijdagi soliq to'lovini hisobga olyapti.

Bu holat shuni anglatadiki, FTC tizimi soliq to'lovchilarga xalqaro miqyosda soliqning ikki barobar bo'lishidan saqlanish imkonini beradi. Bunda ikkala davlatning suveren soliq siyosati hurmat qilinadi, ammo soliq to'lovchining umumiy yuki ortmaydi. Bu AQSHning ikkiyoqlama soliq solishga qarshi xalqaro darajadagi eng muvozanatli va huquqiy asoslangan yondashuvidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari chuqurlashib borar ekan, davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar tobora kengaymoqda. Bunday sharoitda xalqaro darajada soliq solish masalalari, ayniqsa ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, xorijiy davlatlarda faoliyat yurituvchi yuridik va jismoniy shaxslarning o'sha davlatda ham, o'z rezident davlatida ham soliq to'lash majburiyati mavjud bo'lishi soliq yukining ikki baravarga ortishiga olib keladi. Bu esa investitsiyalar hajmini kamaytiradi, soha ishtirokchilarini noformal faoliyatga undaydi va iqtisodiyotni soyadagi holatga yaqinlashtiradi.

AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, ikkiyoqlama soliq yukining oldini olishda faqat ikki tomonlama shartnomalar bilan cheklanib qolmasdan, ichki qonunchilik doirasida ham kuchli mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur. Xususan, Foreign Tax Credit (FTC) mexanizmi xorijiy daromadlardan to'langan soliqlarni AQSHdagi soliqlardan chegirish imkonini yaratadi. Bu orqali bir xil daromad uchun ikki marta soliq to'lashning oldi olinadi va adolatli soliq tizimi shakllanadi. Misol tariqasida Germaniyada 25% stavkada \$25,000 soliq to'lagan AQSH fuqarosi AQSHda yana 21% stavka bo'yicha \$21,000 to'lashi kerak bo'lgan bo'lsa-da, FTC orqali bu soliq summasi nolga tenglashadi. Bu jarayon AQSH rezidentlari uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, xalqaro sodiqlikni ham mustahkamlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, AQSH nafaqat ikkiyoqlama soliq shartnomalari soni bilan (65 ta) emas, balki ichki qonunchilikdagi ilg'or yondashuvlari orqali ham samarali tizim yaratgan. Shuningdek, FATCA va CFC kabi boshqa qonunlar yordamida xorijdagi daromadlarning aniqligi va shaffofligini ta'minlab bormoqda. Bu esa soliq bazasini kengaytirish, soyadagi iqtisodiyotni legallashtirish, va eng muhimi, xalqaro moliyaviy axborot almashinuvi tizimlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston holatiga nazar tashlansa, ikkiyoqlama soliqqa qarshi tuzilgan shartnomalar soni nisbatan kam (55 ta) bo'lib, ularning aksariyati eski huquqiy baza asosida tuzilgan. Eng muhimi, xorijda to'langan soliqlarni chegirishga oid aniq mexanizm (FTC singari) mavjud emas. Bu holat, ayniqsa xorijda daromad olayotgan fuqarolar va investorlar uchun katta soliq xavfini yuzaga keltiradi.

Shu bois, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Xorijiy soliq kredit (FTC) tizimini joriy etishda O'zbekiston Soliq kodeksiga xorijda to'langan soliqlarni hisobga olish mexanizmini kiritish zarur. Bu iqtisodiy erkinlik va adolat tamoyillariga mos keladi.

2. Ikkiyoqlama soliq shartnomalarini ko'paytirish va yangilashda hozirgi mavjud 55 ta shartnoma yetarli emas. Asosiy iqtisodiy hamkorlar – Xitoy, Turkiya, Rossiya, Koreya, BAA kabi davlatlar bilan shartnomalar soni oshirilishi, eski shartnomalar BEPS talablariga mos ravishda yangilanishi lozim.

3. Soliq ma'lumotlari avtomatik almashinuvi tizimini joriy etishda AQSHda mavjud bo'lgan FATCAGA o'xshash tizim yaratish orqali xorijdagi aktivlar va daromadlarni nazorat qilish mumkin bo'ladi.

4. Investorlar uchun soliq kafolatlarini belgilashda xorijiy investorlar uchun ikkiyoqlama soliqqa tortilmaslik kafolatlari beruvchi qonunchilikka aniqlik kiritilishi lozim. Bu orqali O'zbekiston investitsion jozibadorligini oshirish mumkin.

5. Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirishda FTC tizimi va ikki tomonlama shartnomalar samarali ishlashi uchun soliq tizimi to'liq raqamlashtirilishi, xalqaro soliq platformalari bilan integratsiyalashuvi muhim.

Xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lish uchun har bir davlat soliq siyosatini nafaqat ichki manfaatlarga, balki xalqaro soliq tendensiyalariga ham moslashtirishi zarur. AQSHning ikkiyoqlama soliqqa qarshi yondashuvi O'zbekiston uchun o'rnak bo'la oladi. Bu tajribadan foydalangan holda, milliy qonunchilikka xorijiy soliq kredit tizimini kiritish, shartnomalar bazasini kengaytirish va raqamli nazorat mexanizmlarini yo'lga qo'yish orqali O'zbekiston soliq tizimi yanada zamonaviy, adolatli va investitsion jozibador bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brian J. Arnold, Michael J. McIntyre, International Tax Primer, Second Edition, Kluwer Law International, The Hague/London/New York.
2. Miles Dead, Richard Williams, Deloitte Discovery Global Leader., Features – A Challenging Move on the International Stage: Zero Withholding on Direct Dividends in the New US-UK Tax Treaty., Michael Kobetsky, International Taxation of Permanent Establishments Principles and Policy. Australian National University College of Law.2011
3. Reuven S. Avi-Yonah,»Double Tax Treaties: An Introduction.» In The Effect of Treaties on Foreign Direct Investment: Bilateral Investment Treaties, Double Taxation Treaties and Investment Flows, edited by K. P. Sauvart and L. E. Sachs, 99-106. Oxford: Oxford Univ. Press, 2009.
4. Richard L. Doernberg, Overriding tax treaties:The USA Perspective, 9 Emory Int'l L.Rev.71.71(1995).
5. Roy Saunder, Understanding Double Tax Treaties, International Business Structuring Association (2014), Article 14. Published online:31 July 2014, available at <http://www.istructuring.com/knowledge/article/double-tax-treaties/> (last access: 11 May 2017)
6. Викулов К.Е. Правила налогообложения иностранных организаций, действующих через постоянное представительство: опыт ОЭСР и правовое регулирование в России : диссертация ... кандидата юридических наук : 12.00.14

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100